
A linguopragmatic interpretation of the phenomenon of politeness

Ganieva Dildora Azizovna
Doctor of philology, Professor,
Fergana State University

Khakimova Zumradkhon Kudratali qizi
zumradkhon.khakimova@mail.ru
Phd student,
Fergana State University

Annotation *This article examines the category of politeness beyond the traditional frameworks of ethics and moral norms, treating it as a complex linguopragmatic system that serves to maintain social equilibrium between the speaker and the listener during communication. In the era of globalization, the relevance of this research is determined by the need to study politeness strategies through a synthesis of linguistic, cultural, and cognitive contexts. The paper analyzes fundamental theories such as J. Austin and J. Searle's Speech Act Theory, P. Grice's Cooperative Principle, and the "face" concept established by E. Goffman, P. Brown, and S. Levinson. Specifically, the study explores the differences between Western and Eastern discourses, focusing on how linguistic features reflect needs for personal autonomy and collective reputation (positive and negative face). This research holds both theoretical and practical significance for specialists in linguistics, pragmatics, cognitive linguistics, and cultural studies, as well as for researchers involved in discourse analysis.*

Keywords *Politeness, discourse, communication, social face concept, speech*

Xushmuomalalik fenomenining lingvopragmatik talqini

Ganiyeva Dildora Azizovna
Filologiya fanlari doktori, professor,
Farg'ona Davlat Universiteti

Xakimova Zumradxon Qudratali qizi
zumradkhon.khakimova@mail.ru
Tayanch doktorant,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada xushmuomalalik kategoriyasi an'anaviy etika va odob-axloq normalari doirasidan chiqib, muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi murakkab lingvopragmatik tizim sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bugungi globallashuv davrida xushmuomalalik strategiyalarini lisoniy, madaniy va kognitiv kontekstlar sintezida o'rganish zaruriyati bilan belgilanadi. Maqolada J. Ostin va J. Serlning nutqiy aktlar nazariyasi, P. Graysning muloqot maksimalari hamda E. Goffman, P. Brown va S. Levinson tomonidan asoslangan "yuz" (face) konsepsiyasi kabi fundamental nazariyalar tahlilga tortilgan. Shuningdek, shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi muloqot barqarorligini ta'minlovchi va nizolarning oldini oluvchi bosh mezon ekanligi asoslab berilgan. Xususan, G'arb va Sharq muloqot diskursidagi*

farqlar, ya'ni shaxsiy avtonomiya va jamoaviy obro' (pozitiv va negativ yuz) ehtiyojlarining tildagi in'ikosi tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ish zamonaviy tilshunoslik, pragmatika, kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan mutaxassislar, shuningdek, diskurs tahlili bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Maqola xulosalari muloqot samaradorligini oshirish va madaniyatlararo muloqotdagi lisoniy to'siqlarni bartaraf etishda xizmat qiladi.

Kalit so'zlar *Xushmuomalalik, diskurs, muloqot, ijtimoiy yuz konsepsiyasi, nutq*

Лингвопрагматическая интерпретация феномена вежливости

Ганиева Дилдора Азизовна
*Доктор филологических наук, профессор,
Ферганский государственный университет*

Хакимова Зумрадхон Кудратали кызы
zumradkhon.khakimova@mail.ru
*Докторант,
Ферганский государственный университет*

Аннотация *В данной статье категория вежливости исследуется вне рамок традиционной этики и норм морали как сложная лингвопрагматическая система, служащая для поддержания социального баланса между говорящим и слушающим в процессе коммуникации. Актуальность исследования в эпоху глобализации определяется необходимостью изучения стратегий вежливости в синтезе лингвистических, культурных и когнитивных контекстов. В работе анализируются такие фундаментальные теории, как теория речевых актов Дж. Остина и Дж. Серля, максимы общения П. Грайса, а также концепция «лица» (face), заложенная Э. Гоффманом, П. Брауном и С. Левинсоном. Также обосновано, что социокультурная компетенция личности является главным критерием обеспечения стабильности общения и предотвращения конфликтов. В частности, анализируются различия в западном и восточном дискурсах, а именно отражение в языке потребностей в личной автономии и коллективном авторитете (позитивное и негативное лицо). Данная научная работа имеет теоретическую и практическую значимость для специалистов в области лингвистики, прагматики, когнитивной лингвистики и культурологии, а также исследователей, занимающихся дискурс-анализом.*

Ключевые слова *Вежливость, дискурс, коммуникация, концепция социального лица, речь*

Kirish
Zamonaviy lingvistik paradigma doirasida tabiiy nutqiy vaziyatlarni o'rganishga

bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Til ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida shaxslararo aloqalarni tartibga solish vazifasini bajaradi. Spontan

dialogik diskurs o'zining tayyorgarliksiz va tabiiy xarakteri bilan so'zlovchining pragmatik maqsadlarini, jumladan, xushmuomalilik strategiyalarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur jarayonda qo'llaniladigan lisoniy birliklar shunchaki odob normasi emas, balki muayyan madaniy muhitda "yuzni saqlash"ga qaratilgan strategik harakatdir. Shunday ekan, ushbu strategiyalarning turli madaniyatlardagi o'ziga xosliklarini lisoniy jihatdan tasniflash tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Insoniyat madaniyatida til nafaqat fikr almashish quroli, balki shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi etnomadaniy fenomen hisoblanadi. Lisoniy muloqot jarayonida axborot mazmuni bilan bir qatorda suhbatdoshning shaxsiy munosabati va hurmat darajasi ham moddiylikdir. Alisher Navoiy ta'rifiga ko'ra "Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'lum bolib chiqsa, tilning ofatidir". Buyuk mutafakkirning til sharafini bevosita nutqning sifatiga bog'lashi, lisoniy tizimning qadri uning muloqotdagi samaradorligida ekanligini tasdiqlaydi. Nutqning noaniqligi yoki mantiqiy uzilishlari tilning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirib, uning kommunikativ potentsialiga putur yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan, xushmuomalilik kategoriyasi tilning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etishda markaziy obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda xushmuomalilik hodisasi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi lingvopragmatik tizim sifatida talqin etiladi. Uning zamirida ijtimoiy-madaniy qadriyatlar yotadi va u suhbatdoshlar o'rtasidagi masofani muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Tilda bir fikrni bir qancha shakl shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg'unini topa bilish nutq egasining tilga soxiblik darajasi, maxoratu malakasi, ma'rifatu ma'naviyatiga bog'liq (Maxmudov, 2007; 5). Binobarin, nutq shaklini ongli ravishda differensiyalash (farqlash) qobiliyati zamonaviy tilshunoslikda

shaxsning kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbek xalqining ma'naviy merosida xushmuomalilik fenomenologiyasi qadimiy va barqaror ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Xalq og'zaki ijodidagi "Odobning boshi – til" kabi paremiyalar lisoniy muloqotning shaxs axloqiy qiyofasini belgilovchi determinant ekanligini tasdiqlaydi. Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezon (Кудратов, 1993; 77) bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda nutq madaniyati nafaqat lisoniy mahorat, balki shaxsning umumiy ma'naviy yetukligini ko'rsatuvchi indikator sifatida baholanadi. Xususan, Turon xalqlari etik-estetik qarashlarida nutqiy did va muloqot odobi inson kamolotining ajralmas qismi hisoblangan. Kaykovusning "Bilgilkim, xamma hunardan so'z hunari yaxshi" (Қобушнома, 1968; 210) misolidagi qarashlari esa nutq madaniyatini ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi universal tarbiya modeli (pedagogik-kommunikativ konsepsiya) sifatida talqin etishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Lingvistik falsafaning rivoji natijasida tilni harakat sifatida o'rganuvchi nutq aktlari nazariyasi shakllandi. L. Vitgenshteyn "Philosophical Investigations" (Витгенштейн, 1985; 79-128) asarida aks etgan transformatsiya – mantiqiy pozitivizmdan pragmatik funksionalizmga o'tish – ushbu nazariyaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Agar olimning dastlabki qarashlarida til voqelikni tasvirlovchi rasm (picture theory) vazifasini bajargan bo'lsa, uning kechki davr tadqiqotlarida til ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lgan "o'yin" (dinamik jarayon) sifatida tavsiflanadi. Masalan, nutqiy etiket birliklari (uzr so'rash, iltifot va h.k.) endi shunchaki leksik birlik emas, balki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy muloqotni tartibga soluvchi amaliy aktlar sifatida tahlil qilinadi. Bu yondashuv so'z ma'nosining vaziyat va ohang kabi ekstralingvistik omillarga bog'liqligini isbotlab berdi.

Analitik falsafa va zamonaviy tilshunoslikning kesishuv nuqtasida J. L. Ostin tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi lisoniy birliklarni o'rganishda inqilobiy burilish yasadi. Olim o'zining "How to Do Things with Words" (Austin, 1955; 184) asarida so'zlash jarayonini shunchaki deskriptiv (tasvirlovchi) axborot almashinuvi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi dinamik faoliyat sifatida talqin etadi. Ostin an'anaviy semantikaning "so'z nima anglatadi?" degan statik yondashuvini "so'z yordamida qanday amalga oshiriladi?" degan pragmatik savolga o'zgartirdi. Uning tomonidan ilgari surilgan performativlik konsepsiyasi tilning nafaqat voqelikni aks ettirish, balki yangi ijtimoiy-huquqiy reallikni yaratish quvvatiga (illokutsion kuchiga) ega ekanligini isbotlab berdi. Va'da berish, e'lon qilish yoki kechirim so'rash kabi nutqiy harakatlar shunchaki bayon emas, balki shaxslararo munosabatlarni transformatsiya qiluvchi lisoniy amallardir.

J. Ostin tomonidan fanga kiritilgan "performative" tushunchasi tilning shunchaki ma'lumot uzatish vositasi emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi kuch ekanligini anglatadi. Bu kontsepsiya doirasida so'zlar ijtimoiy, huquqiy va emotsional aloqalarni quruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Ostin modelining markazida "so'z kuchi" g'oyasi yotadi, bunda har bir nutqiy akt quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. **Lokutsion akt:** Til qoidalariga mos, ma'noli jumla tuzish.
2. **Illokutsion akt:** So'z ortidagi aniq niyat va maqsadni ifodalash.
3. **Perlokutsion akt:** Nutqning tinglovchi ruhiyatiga yoki xulq-atvoriga ko'rsatgan natijaviy ta'siri.

Ostin nazariyasiga ko'ra, nutqiy harakatning muvaffaqiyati ma'lum bir "omadli shartlar"ga (felicity conditions) – ya'ni so'zlovchining vakolati, vaziyatning mosligi va qabul qiluvchining reaksiyasiga bog'liq. Biroq, ushbu modelda madaniy va ijtimoiy kontekst o'zgaruvchilari yetarlicha inobatga olinmagan

deb hisoblash mumkin. Real muloqot jarayonida ijtimoiy muhit bir xil jumlagacha turlicha ma'no yuklaydi. Masalan, "Sizni ogohlantiraman" iborasini olsak:

- **Rasmiy doirada:** Bu buyruq yoki qat'iy talab (direktiv);
- **Norasmiy (do'stona) muloqotda:** Shunchaki g'amxo'rlik yoki xavotir belgisi;
- **Pedagogik muhitda:** Yo'nalish beruvchi maslahat sifatida namoyon bo'ladi.

Garchi Ostin modeli madaniy tafovutlar va pragmatik ierarxiyalarni to'liq qamrab olmagan bo'lsa-da, u tildagi "ijro kuchi"ni ilmiy asoslab berdi. Ushbu fundamental qarashlar keyinchalik J. Syerl hamda Braun va Levinson kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, bu g'oyalar muloqotdagi xushmuomalilik strategiyalari va pragmatik mexanizmlarni chuqur tahlil qilish uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi. Ostin nazariyasi nutqni harakat sifatida ko'rishni boshlab bergan bo'lsa, zamonaviy pragmatika ushbu harakatlarning turli madaniy iqlimlarda turlicha "kuch"ga ega bo'lishini ijtimoiy kontekst orqali to'ldiradi.

Nutq madaniyati va xushmuomalilik kategoriyalarini tadqiq etishda J. Ostinning qarashlari fundamental ahamiyatga ega. Olimning konsepsiyasiga ko'ra, har bir illokutsion akt o'zida nafaqat axborotni, balki aniq ijtimoiy maqsad va etik me'yorlarni ham mujassam etadi. Binobarin, xushmuomalilik strategiyalari illokutsion niyatning madaniy filtrlar orqali yumshatilgan ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Masalan, "Siz ushbu vazifani bajara olasizmi?" konstruksiyasi sintaktik jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, uning pragmatik (illokutsion) mazmuni muloyim iltimosni ifodalaydi. Bu esa Ostin modelining til orqali ijtimoiy masofa, birdamlik va o'zaro hurmat kabi interaktiv munosabatlarni tushuntirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi.

J. Ostin tomonidan asos solingan model keyinchalik J. Syerl tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi va qat'iy ilmiy tizimga keltirildi. Syerl nutq aktini shunchaki uch bosqichli jarayon sifatida emas, balki muayyan

qoidalarga bo'ysunuvchi kommunikativ hodisa sifatida tahlil etadi. U lokutsion mazmuni propositsional tarkib bilan, illokutsion kuchni esa maxsus qoidalar majmuasi bilan bog'lagan holda, nutqiy harakatlarni quyidagi besh asosiy turga tasniflaydi:

- **Assertivlar:** Borliq haqidagi ma'lumotni, fakt va tasdiqni ifodalovchi aktlar (masalan, *"Bugun havo bulutli"*).
- **Direktivlar:** Tinglovchini muayyan harakatni bajarishga undashni maqsad qilgan nutqiy harakatlar (*"Eshikni yopib qo'ying"*).
- **Komissivlar:** So'zlovchining kelajakdagi harakatlari uchun o'z zimmasiga majburiyat olishini bildiruvchi ifodalar (*"Vazifani o'z vaqtida topshiraman"*).
- **Ekspressivlar:** So'zlovchining subyektiv emotsional holatini va munosabatini aks ettiruvchi shakllar (*"Sizning yordamingizdan juda mamnunman"*).
- **Deklarativlar:** Nutqiy ifoda orqali ijtimoiy voqelikni yoki statusni o'zgartirishga xizmat qiluvchi aktlar (*"Sizni rasman g'olib deb e'lon qilaman"*).

Syerlning ushbu klassifikatsiyasi Ostin modelini yanada formallashtirib, pragmatik tadqiqotlar uchun aniq lingvistik metodologik baza yaratdi. Mazkur tizimlashtirish nutqiy muloqotda lisoniy birliklarning vazifaviy imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Natijalar va Muhokama

Nutq aktlari nazariyasining evolyutsiyasini kuzatar ekanmiz, J. Syerl – J. Ostin tomonidan taklif etilgan uch bosqichli modelni shunchaki takrorlamasdan, uni strukturaviy jihatdan chuqurlashtirganiga guvoh bo'lamiz. Syerl nutqni o'z-o'zidan sodir bo'ladigan "hodisa" (phenomenon) maqomidan qat'iy qoidalarga asoslangan "tizim" (system) darajasiga ko'tardi. J. Ostin yondashuvida esa bunday qat'iy taksonomik bo'linish kuzatilmaydi; u ko'proq tilning amalga aylanish tabiatini umumiy falsafiy-

lingvistik doirada tushuntirish bilan cheklanadi.

Tilning faoliyat sifatidagi talqinida ushbu ikki olim o'rtasidagi farq kundalik diskurs misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *"Endi seni hurmat qilaman"* deyilgan nutqiy vaziyatni tahlil qilaylik:

- **Ostin nuqtai nazaridan:** Ushbu ibora performativ xususiyatga ega. Bu shunchaki subyektiv fikr emas, balki hurmat bildirish harakatining bevosita o'zidir. Ya'ni, so'z aytilishi bilan ijtimoiy munosabatda o'zgarish sodir bo'ladi – so'z va amal bir butunlikni tashkil etadi.
- **Syerl talqinida:** Mazkur ifoda ekspressiv nutq akti sifatida tasniflanadi. U gapiruvchining emotsional holatini aks ettiradi, biroq uning samaradorligi muayyan pragmatik qoidalarga (samimiylik, sharoitning mantiqiyliigi va tinglovchining adekvat qabuli) tayanadi. Agar tinglovchi o'zini haqiqatan ham e'zozlangan deb his qilsa, ko'zlangan perlokutsion natija amalga oshgan hisoblanadi.

Ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi farqlarni tizimli ravishda quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Mezon	J.L. Ostin Yondashuvi	J. Syerl Yondashuvi
Nutqqa munosabat	Nutq – bu bevosita ijtimoiy harakat (ijro).	Nutq – qoidalarga bo'ysunuvchi tizimli hodisa.
Asosiy yo'nalish	Performativlik va "so'z kuchi"ning falsafiy asosi.	Nutq aktlarining ilmiy tasnifi va formallashgan qoidalari.
Tahlil darajasi	Umumiy falsafiy va vaziyatli tahlil.	Strukturaviy, propozitsional va lingvistik tizimlashtirish.
Muvaffaqiyat mezon	"Omadli shartlar" (felicity conditions).	Konstitutiv va tartibga soluvchi qoidalar (constitutive rules).

1-jadval.

Shunday ekan, J. Ostin va J. Syerl bir xil nazariy yo'nalishning vakillari bo'lsalar-da, ular orasida metodologik va tahliliy darajada jiddiy tafovutlar mavjud. Ostin tilni amaliy "ijro" (performance) sifatida ko'rgan bo'lsa, Syerl uni qat'iy qoliplarga ega kommunikativ struktura sifatida izohlaydi. Bu farqlarni tushunish spontaneous nutqiy diskursdagi xushmuomalilik strategiyalarini tahlil qilishda muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Nutq aktlari nazariyasining lisoniy tadqiqotlardagi evolyutsiyasi tilning shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi faoliyat ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida J. Ostin va J. Syerl konsepsiyalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning pragmatik tadqiqotlar metodologiyasidagi o'rnini belgilandi. Ostinning performativlik g'oyasi so'z va amalning bir butunligini asoslab, tilga "ijro kuchi"ni yuklagan bo'lsa, Syerl ushbu tizimsiz hodisalarni qat'iy qoidalar asosidagi besh turli taksonomiyaga keltirdi. Bu esa muloqot jarayonini tizimli tahlil qilish imkonini yaratdi. Ayniqsa, spontan diskursda xushmuomalilik strategiyalarini tahlil qilishda ushbu nazariyalarning ahamiyati

beqiyosdir. Braun va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalilik modeli bevosita Ostin va Syerlning illokutsion niyat haqidagi qarashlariga tayanadi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, har bir muloyimlik shakli aslida yashirin illokutsion maqsadning madaniy qoliqlar orqali yumshatilgan ko'rinishidir. Masalan, direktiv nutq aktlarining so'roq yoki ekspressiv shakllar orqali ifodalanishi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi "ijobiy" va "salbiy" yuz (face) talablarini muvozanatlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ostinning falsafiy yondashuvi va Syerlning strukturaviy tizimi zamonaviy pragmatika uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Syerl tomonidan taklif etilgan assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlar klassifikatsiyasi spontan muloqotdagi lisoniy birliklarning vazifaviy ko'lamini aniqlashda asosiy metodologik baza hisoblanadi. Ushbu nazariyalar integratsiyasi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy ierarxiya, birdamlik va masofa kabi pragmatik o'zgaruvchilarni chuqur tahlil etish, tilning madaniyatlararo muloqotdagi o'ziga xosliklarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Austin, J. L. (1962). *How To Do Things with Words: The William James Lectures Delivered at Harvard University in 1955* / ed. by J. O. Urmson and M. Bissau. Oxford: Clarendon Press.

2. Витгенштейн, Л. (1985). *Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике*. Вып. XVI. М.: Прогресс.
3. Махмудов, Н. (2007). *Ўқитувчи нутқи маданияти*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий наширёти.
4. Қудратов, Т. (1993). *Нутқ маданияти асослари*. Тошкент: "О'қитувчи"
5. *Қобуснома*. (1968). Тошкент: "О'қитувчи".